

## TALABALARNING MUSTAQIL ISHI -TALIMNI TASHKIL ETISHNING ISTIQBOLLARI

**Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari  
universiteti, Hamrayeva Gulnoz**

**Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari  
universiteti, Maxmudova Marjona**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning maqsadi, vazifalari shuningdek, amalga oshirish shart-sharoitlari mazmuni yoritilgan.

**Аннотация:** в данной статье изложено содержание цели, задачи организации выполнения самостоятельных работ студентов в высших учебных заведениях, а также условия их выполнения.

**Abstract:** This article outlines the content of the goal, the task of organizing the implementation of independent work of students in higher educational institutions, as well as the conditions for their implementation.

**Kalit soʻzlari.** Talaba, mustaqil ishi, tashkil etish shakli, namuna, tashkil etish joyi, auditoriya, interfaol muloqot.

Jahondagi yetakchi davlatlar oliy ta'limini rivojlantirish yoʻnalishlarida talabalarning mustaqil ishlari foizining tobora koʻpayib borayotganligi tendentsiyasi kuzatilmoqda. Bu oʻz navbatida “oʻqitish” dan “oʻrgatish” jarayoniga oʻtishni taqozo etmoqda. Ta'limda kompetentli yondashuv amalga oshirilayotgan vaqtda mustaqil ishlash koʻnikmalari va malakalaritizimini shakllantirish, talabalar mustaqil faoliyati madaniyatini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida mustaqil ish ta'limni tashkil etish shakli sifatida qaralib, talabalarda zarur axborotlarni mustaqil izlash, auditoriya va auditoriyadan tashqari mashgʻulotlarda oʻquv materialini mazmunini ijodiy anglash va qabul qilish, tahlil qila olish qobiliyatlarini, shuningdek, faollik, mustaqillik, ijodkorlik, bilishga intilish xususiyatlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Biz tomonimizdan taqdim etilayotgan texnologik yondashuvlar talabalar, magistrilar, hamda oʻqituvchilarning turli shakldagi mustaqil ishlarni bajarish va baholashni tashkil etish muammolarini yechishga, shuningdek, oʻz-oʻzini rivojlantirish, loyihalash koʻnikmalarini takomillashtirish imkoniyatini beradi.

Davlat ta'lim standartiga asosan talabalarning mustaqil ishi ta'lim jarayonining muhim komponenti hisoblanib, ma'ruza mashg'ulotlari davomida egallangan bilimlarni mustahkamlash, o'z navbatida bu bilimlar mazmunini anglash va kengaytirish, umummadaniy hamda kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishga oid ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini berib, seminar, amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik hamda joriy, oraliq, yakuniy nazoratlarni topshirish jarayonidagi faoliyatnazarda tutadi.

Turli xil bilimlarni egallashga oid mustaqil ish ko'nikmalari insonning ilk bolalik davridan boshlanib butun umri davomida rivojlanib boradi. Oliyohda o'qishni boshlash davrida har bir talaba maktab, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'rgangan, ijtimoiy muhitda shakllangan o'z faoliyatini tashkil etish bo'yicha ko'nikmalar va shaxsiy tajribasiga ega bo'ladi.

Murakkab umummadaniy hamda kasbiy kompetentsiyalarni egallash asnosida, oliyohda ta'lim olish jarayonida mustaqil ishni tashkil etishga qo'yiladigan talab sezilarli darajada ko'payadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, talabalarning mustaqil ishni bajarishga qo'yiladigan talabalarni bajarishga tayyorgarlik darajalari turlicha bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim jarayoni doirasida mustaqil ishlarni tashkil etishning quyidagi o'ziga xos printsiplari mavjud

- o'qitishning interfaoligi printsipti (talabalar harakatini nazorat va korrektsiyalashni amalga oshirishni ta'minlaydigan interfaol muloqot va teskari aloqani ta'minlash).

- talabalar intellektual quvvatlarini rivojlantirish printsipti (tafakkurning algoritmik, ko'rgazmali-obrazli, nazariy uslublarini hamda murakkab vaziyatlarda qulay va turli xil qarorlar qabul qilish, axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish).

- o'qitishning didaktik davri uzluksizligi va butunligini ta'minlash printsipti (modul, bo'lim, hamda mavzu doirasida didaktik davrning barcha bo'g'inlarini amalga oshirish imkoniyatini hosil qilish).

Talabalarning mustaqil ishi o'qituvchi tomonidan fanning ishchi dasturi mazmunida rejalashtiriladi va o'z ifodasini topadi. Texnologik xaritada esa mustaqil ishning shakli, hajmi, bajarish muddati hamda baholash mezonlari yoritiladi. Talabalarning mustaqil ishi:

- tashkil etish joyi (auditoriya va auditoriyadan tashqari);



- tashkil etish maqsadi(fan ishchi dasturida belgilangan va asoslangan maqsad asosida);

- tashkil etish shakli (yakka holda, jamoaviy)ga qarab tasniflanadi.

Mustaqil ishni tashkil etish shakli (yakka holda, jamoaviy)ni tanlash o‘quv fani mazmuni va o‘qitishni tashkil etish shakli bilan aniqlanadi (ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulot, nazorat ishi va h.k.z)

Turli darajadagi mustaqil ish turlari farqlanadi:

1. Namuna asosidagi mustaqil ish-mustaqil faoliyatning past darajasi. Yechimni aniqlashning taniqli usulini qo‘llagan holda vazifalarni bajarish. Bu ishlar o‘qituvchi tomonidan avval ko‘rsatilgan hamda talabalar tomonidan tajribadan o‘tkazilgan mustaqil ishlarni qayta takrorlash asosida bajariladi.

2. Rekonstruktiv-variantivtip mustaqil faoliyatning boshlang‘ich darajasi. Bilimlarni tipik vaziyatlargaongli ravishda o‘tkazish, turli hodisalar, voqealar, faktlarni tahlil qilish, bilish faoliyati metodlari va usullarini shakllantirish imkoniyatini beradi.

3. Evristik mustaqil ishlar-mustaqil faoliyatning harakatchan darajasi. O‘quvchilarda ijodiy shaxsni shakllantirishga yordam beradi. Bu tipdagi ishlarni bajarishda doimiy ravishda yangi yechimlarni izlash, egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish, ularni nostantardt vaziyatlarga o‘tkazish taqozo etiladi.

4. Predmet ichida va predmetlararo tadqiqot tipidagi mustaqil ishlar-mustaqil faoliyatning yuqori darajasi. Mustaqil ishlarni bajarishning eng yuqori bosqichi hisoblanib, bundayishlarni bajarishda vazifa yechimini topish yo‘llarini ishlab chiqish talab etiladi. Oliy ta’lim muassasasidagi auditoriya mashg‘ulotlarining asosiy turlariga ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminar, seminar-konferentsiya hisoblanadi.

Mustaqil faoliyat muayyan fandan o‘quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni amalga oshirishga xizmat qiladi, o‘qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya yoki auditoriyadan tashqarida bajariladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib, mustaqil ish turlari bo‘yicha topshiriqlar ishlab chiqiladi. Talabalar mustaqil ishining asosiy maqsadi-o‘qituvchining raxbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat bo‘lib, turli



darajadagi mustaqil ishlarni bajarishda talabalar konspektlashtirish, misollarni tanlash, taqqoslash, fanlararo aloqalarni aniqlash, qo‘shimcha adabiyotlarni qo‘llash kabi kompleks faoliyat usullaridan foydalana olishlari muhimdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zakirova F.M. Hamrayeva G.R. (2021). Kasb ta'lim yo'nalishi talabalarini raqamli kompetentligini multimediali loyiha asosida rivojlantirish. "Zamonaviy ta'lim" jurnali. (O'zbekiston) ISSN -2181-6514. № 3 (100), 2021. 32-38.

2. Xamrayeva G.R., T. Э. (2021). Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati. "Kasb-hunar ta'limi" "Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. (Uzbekistan), № 1, 2021. 45-50.

3. Khamrayeva G.R. (2021) The importance of developing digital competence of students in a digital economy. International Conference on Digital Society, Innovations & Integrations of Life in New Century. Vol.6 ICDSIIL21. 124-126.

4. Khamrayeva G.R. (2023) Journal of Advanced Research and Stability. FACTORS OF STUDENTS' DIGITAL COMPETENCE DEVELOPMENT. Volume: 03 Issue: 01 | Jan - 2023 ISSN: 2181-2608. 11-14.

5. Khamrayeva G.R. (2022). Prospects for developing digital competence of students in professional educational environment. "NamDU ilmiy axborotnomasi - Научный вестник НамГУ". №5,. 849-854.

6. Zakirova, F., Saidova, F., & Otamurodov, G. (2019, November). E-portfolios in the system of retraining and advanced training of academic staff: Experience of the Republic of Uzbekistan. In Proceedings of the 2019 3rd International Conference on Education and E-Learning (pp. 56-60).

Research Science and  
Innovation House